

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**САМАРҚАНД ДАВЛАТ ВЕТЕРИНАРИЯ МЕДИЦИНАСИ,  
ЧОРВАЧИЛИК ВА БИОТЕХНОЛОГИЯЛАР УНИВЕРСИТЕТИ**

**ЮСУПОВА С.Ф.**

**60840100-VETERINARIYA MEDITSINASI (FAOLIYAT TURLARI  
VO‘YICHA) TA’LIM YO‘NALISHI 2 –БОСҚИЧ ТАЛАБАЛАРИ УЧУН  
“ҚУЁНЛАРНИ ОЗИҚЛАНТИРИШ РАЦИОННИНИ ТУЗИШ”  
MAVZUSIDAGI AMALIY DARS ISHLANMASI**

**Samarqand- 2023**

**Tayyorladi:**

**С.Ф. Юсупова** - Яйлов чорвачилиги, қоракүлчилик, асаларичилик  
ва ипакчилик кафедраси лаборатория мудираси

**Taqrizchilar:**

**О. Махмадиев** - Sam VMЧБУ. Хусусий зоотехния кафедраси  
мудири, в.б.dotsenti, q.x.f.ф.d. (PhD)

**Д. Абдузоирова** - Qorako‘Ichilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy tadqiqot  
instituti катта илмий ходими, q.x.f.ф.d (PhD)

### 1.1. Mashg‘ulotni o‘qitish texnologiyasi.

Mavzu:	Қыёnlar uchun oziqlantirish ratsionini tuzish
O‘quv mashg‘ulotning shakli	<b>Amaliy mashg‘ulot</b>
O‘quv mashg‘ulotining tuzilishi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Қуёнлар ҳақида тушунча</li> <li>2. Қуёнларни озиқлантиришда меъёрлаш</li> <li>3. Меъёр асосида рацион тузиш.</li> </ol>
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b>	har xil fiziologik holatdagi urg‘ochi va yosh quyonlar uchun ozuqa me’yorini belgilash, ratsion tuzish va oziqlantirish texnikasini o‘rganish.
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<p><b>O‘quv faoliyatining natijalari: Talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Қуёнлар ҳақида haqida tushuncha berish;</li> <li>- Қуёнларни озиқлантиришда меъёри haqida tushuncha бериб ўтиш</li> <li>- Меъёр асосида рацион тузишни ўргатиш</li> </ul>
<b>Ta’lim usullari</b>	BBB texnikasi, Aqliy hujum, blits-so‘roq, Sinkveyn, Assesment texnikasi
<b>Ta’limni tashkillash-tirish shakli</b>	Individual, kichik guruhlarda va jamoaviy ishlash
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Namunadagi auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og‘zaki so‘rov, test nazorati

## 1.2. Mashg‘ulotni o‘qitish texnologik xaritasi

O‘qitishning bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min)	<p>1.1. Mavzuning nomi, maqsadi, kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Talabalarni faollashtirish uchun aqliy hujum usulini qo‘llaydi (g’unajjin nima, sog’in sigir nima, furaj sigir nima, furaj sigirlar bosh sonini hisobga olish necha bosqichda olib boriladi, o‘rtacha bir bosh furaj sigirdan sut sog’ib olish qanday hisoblanadi?)</p>	<p>1.1. Tinglaydilar</p> <p>1.2. Yozib oladilar</p> <p>Savollarga javob beradilar</p>
2-bosqich. Tayyorlov (5 min)	<p>2.1. Mavzu bo‘yicha bajariladigan ish bilan tanishtiradi.</p> <p>2.2. Talabalarni kichik guruhlarga ajratadi.</p> <p>2.3. Ekspert varag‘ini tarqatadi.</p> <p>2.4. Baholash mezoni bilan tanishtiradi.</p>	<p>2.1. Tanishadilar</p> <p>2.2. Kichik guruhlarga bo‘linadilar</p> <p>2.3. Topshiriq bilan tanishadi va bajarishga kirishadi.</p> <p>2.4. Tinglaydi, aniqlik kiritadilar</p>
3-bosqich Asosiy (60 min)	<p>3.1. Guruhlarda ishni bajarilishini kuzatadi.</p> <p>3.2. Taqdimot boshlanganligini e’lon qiladi.</p> <p>3.3. Kamchilik va xatolarni ko‘rsatib, baholaydi.</p>	<p>3.1. Guruhlarda har bir talaba faol ishlaydi.</p> <p>3.2. Guruh bo‘yicha bitta talaba taqdimot qiladi.</p> <p>3.3. Tinglaydi, aniqlik kiritadi.</p>
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>4.1. Mavzuga yakun yasaydi.</p> <p>4.2. Bajarilgan ishni talabalarni kelajakdagi faoliyatidagi o‘rnini izohlaydi.</p> <p>4.3 Uyga vazifa beradi.</p>	<p>4.1. Tinglaydilar, savollar beradi.</p> <p>4.2. Eshitadi.</p> <p>4.3. Yozib oladilar.</p>

**Mavzu:** Kyenlar uchun oziqlantirish ratsionini tuzish

### B.B.B. texnikasi

<b>№</b>	<b>Mavzu savoli</b>	<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni xohlayman</b>	<b>Bildim</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
1	Ratsion tarkibidagi 100 g ozuqa birligiga (1,047 MDj) қанча miqdorda hazmlanuvchi protein to‘g‘ri kelishi kerak:			
2	Ratsionning quruq modda tarkibida xom kletchatka қанча бўлади			
3	Yosh quyonlar bir kunda нечи marotoba oziqlantiriladi			
4	Капрофагия ҳодисаси нима?			

**Mashg‘ulotning maqsadi:** : har xil fiziologik holatdagi urg‘ochi va yosh quyonlar uchun ozuqa me’yorini belgilash, ratsion tuzish va oziqlantirish texnikasini o‘rganish.

Ta’limiy maqsad - talabalar қўёнларга ratsion tuzish va oziqlantirish texnikasini o‘rganishни mukammal bilib olishlari uchun nazariy bilimlarni mustaxkamlash hamda ularda malakalarini shakillantirish.

Талабалар olgan bilim va malaka, ko‘nikmalariga yakun yasaydi. Mashg‘ulotni yaxshi bajargan талабалар alohida ko‘rsatib turiladi. Xatolar taxlil qilinadi, ularni bartaraf etish yo’llari ko‘rsatiladi.

**Uslubiy ko‘rsatma.** Katta yoshdagi quyonlarning energiya va to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabi organizmda kechadigan modda almashinuviga bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida ularning yoshi, tirik vazni, fiziologik holati (qochirilmagan, qochirish va bo‘g‘ozlik va emizikli davrlar), binoning mikroiqlim ko‘rsatkichlari hamda atrof-muhit sharoitiga (qish, yoz) ham bog‘liq.

Katta yoshdagi quyonlarni oziqlantirish me’yorlari 1-2 jadvalarda ko‘rsatilgan.

Katta yoshdagi quyonlar uchun yoz davrida qochirilmagan holatda 1 kg tirik vazn uchun o‘rtacha 27 g quruq modda talab etadi. Keyingi holatlarda bu talab oshib, emizishning birinchi ikki dekadalarda 55-74 g va yakuniy dekadada 113 g ni tashkil etadi. yosh o‘sayotgan quyonlar 1 kg tirik vazni uchun 62 g quruq modda talab etadi. Bu ko‘rsatkichlar qish mavsumida 20-25% ga oshadi.

*I-jadval*

*Katta yoshdagи quyonlarni oziqlantrish me'yorlari*

Ko'rsatkichla	Qochirilmagan davrida			Qochirish davrida			Bug'ozlik davrida		
	Tirik vazni, kg								
	4	4,5	5	4	4,5	5	4	4,5	5
Ozuqa birligi	130	145	160	160	180	200	180	200	200
Almashinuv energiya, MDj	1,36	1,52	1,67	1,67	1,88	2,09	1,88	2,09	2,30
Quruq modda, g	140	155	175	170	190	210	185	210	230
Xom protein, g	25	28	30	31	35	39	36	40	41
Hazmlanuvchi protein, g	18	20	22	23	26	29	28	31	34
Xom kletchatka, g	23	25	28	29	32	36	33	36	40
Osh tuzi, g	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,2	1,4	1,5
Kalsiy, g	1,0	1,1	1,2	1,2	1,3	1,4	2,1	2,3	2,6
Fosfor, g	0,6	0,7	0,7	0,8	0,8	0,9	1,3	1,5	1,6
Temir, mg	51	51	51	51	57	63	55	61	68
Mis, mg	2,2	2,2	2,2	2,2	2,4	2,7	3,0	3,4	3,7
Rux, mg	13	13	13	13	14	16	26	29	32
Marganes, mg	5,0	5,0	5,0	5,0	5,6	6,2	5,0	5,6	6,2
Karotin, mg	1,1	1,3	1,4	1,6	1,8	2,0	1,6	1,8	2,0
Vitamin D, XB	400	450	500	400	450	500	400	450	500
Vitamin E, mg	8	9	10	8	9	10	8	9	10

*Emizikli quyonlarni oziqlantirish me'yorlari*

Ko'rsatkichlar	Laktasiya davri, kun											
	1-10			11-20			21-30			31-45		
	Tirik vazni, kg											
	4	4,5	5	4	4,5	5	4	4,5	5	4	4,5	5
Ozuqa birligi	260	290	330	360	400	440	450	510	560	570	640	700
Almashinuv energiya, MDj	2,72	3,04	3,45	3,77	4,19	4,61	4,71	5,34	5,86	5,97	6,70	7,33
Quruq modda, g	280	310	350	375	420	470	470	530	590	570	640	710
Xom protein, g	56	62	71	77	86	95	99	113	124	126	141	155
Hazmlanuvchi protein, g	43	48	54	59	66	79	77	87	95	97	109	119
Xom kletchatka, g	43	48	54	59	66	72	61	68	75	90	100	110
Osh tuzi, g	2,0	2,0	2,0	2,0	2,0	2,0	2,0	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5
Kalsiy, g	3,6	3,8	4,0	3,6	3,8	4,0	3,6	3,8	4,0	3,6	3,8	4,0
Fosfor, g	2,2	2,3	2,5	2,2	2,3	2,5	2,2	2,3	2,5	2,2	2,3	2,5
Temir, mg	92	98	104	92	98	104	92	98	104	92	98	104
Mis, mg	5,1	5,5	5,8	5,1	5,5	5,8	5,1	5,5	5,8	5,1	5,5	5,8
Rux, mg	32	34	36	32	34	36	32	34	36	32	34	36
Marganes, mg	21	22	24	21	22	24	21	22	24	21	22	24
Karotin, mg	2,6	2,9	3,2	2,6	2,9	3,2	2,6	2,9	3,2	2,6	2,9	3,2
Vitamin D, XB	400	450	500	400	450	500	400	450	500	400	450	500
Vitamin E, mg	8	9	10	8	9	10	8	9	10	8	9	10

Katta yoshdagagi quyonlarning 1 kg tirk vazniga talab etiladigan energiya quyidagicha: qochirilmagan davrda – 30-32 g ozuqa birligi (0,32-0,34 MDj), qochirish davrida – 35-40 g ozuqa birligi (0,37-0,42 MDj), bo‘g‘ozlik davrida – 40-45 g ozuqa birligi (0,42-0,47 MDj), laktasiya davrida bu ko‘rsatkich quyonlarnin sutforligi va emizadigan quyon bolalari soniga qarab – 65-95 g ozuqa birligi (0,90-1,38 MDj).

Ratsion tarkibidagi 100 g ozuqa birligiga (1,047 MDj) quyidagi miqdorda hazmlanuvchi protein to‘g‘ri kelishi kerak: bo‘g‘oz va emizikli quyonlar uchun – 15-18 g, 4 oylikgacha – 16-17 g, podani to‘ldiruvchi va qochirilmagan quyonlar uchun – 12-16 g.

Ratsionning quruq modda tarkibida xom kletchatka miqdori katta yoshdagagi qochirilmagan quyonlar uchun 15-20%, emiziklilar uchun – 10-16 tashkil etish kerak.

Quyonlarni qish mavsumida hovlilarda saqlanganda ozuqa me’yorlari 15% ga oshiriladi, lekin hazmlanuvchi protein me’yorlari qish va yoz mavsumlari uchun bir hil qoladi.

Quyonlar uchun ozuqa ratsionlarini tuzishda ayrim ozuqalarning maksimal beriladigan miqdor ko‘rsatkichlaridan foydalash tasiya etiladi (103-jadval).

Ratsion tarkibidagi 100 g ozuqa birligiga (1,047 MDj) 4 oylikgacha bo‘lganlar uchun – 16-17 g, podani to‘ldiruvchi va qochirilmagan quyonlar uchun – 12-16 g protein talab etiladi, bunda quruq modda tarkibida xom kletchatkaning optimal miqdori 12-15% ni tashkil etish kerak.

Quyon balalarini o‘sirishda quyidagi ratsion strukturasidan foydalanish tavsiya etiladi, qishda: pichan – 10-20%, shirali ozuqalar – 20-30%, konsentratlar 55-65%. Yozda: ko‘k o‘tlar – 30-40% va konsentratlar – 60-70%.

Yosh quyonlarga, ayniqsa sutdan chiqarilgandan so‘ng, sifati past bo‘lgan hajmli va dag‘l poyali ozuqalarni, qurib qolgan o‘tlarni, dehqonchilik va poliz ekinlarning qoldiqlari bilan doimiy ravishda oziqlantirish ta’qiqlanadi.

Yosh quyonlar bir kunda 3-4 marotoba oziqlantiriladi, yangi ozuqaga astasekinlik bilan o‘rgatiladi, ularni ushbu ozuqalarga sut emish davrida o‘rgatib borish

maqsadga muvofiq. Ko‘k o‘tlar so‘litib, ildiz mevalilar esa tuproq va loydan tozalangan va maydalangan holda beriladi. Donli ozuqalar yorma yoki ezilgan holtda tayyorlanadi, quyonlarni oziqlantirishda beriladigan ozuqalar turlari va maksimal darajada berish miqdorlari 103-jadvalda ko‘rsatilgandek bo‘lishi maqsadga muvafiq.

### *3-jadval*

#### *Yosh quyonlarni oziqlantirish*

Ko‘rsatkichlar	Yoshi, kun			120 kunlikdan katta bo‘lgan podani to‘ldiruvchi quyonlar, t.v. 3,2-3,8 kg
	45-60	61-90	91-120	
	Tirik vazni, kg			
	1-1,7	1,7-2,4	2,4-3	
Ozuqa birligi	70-125	125-170	170-225	200-220
Almashinuv energiya, MDj	0,73-1,31	1,31-1,78	1,78-2,36	2,09-2,30
Quruq modda, kg	73-130	130-195	195-235	200-220
Xom protein, g	15-27	27-37	37-49	34-37
Hazmlanuvchi protein, g	12-21	21-28	28-37	26-29
Xom kletchatka, g	9-17	17-23	23-30	35-39
Osh tuzi, g	0,3-0,5	0,6-0,8	0,8-1,0	0,9-1,0
Kalsiy, g	0,4-0,6	0,6-0,9	0,9-1,1	1,1-1,3
Fosfor, g	0,3-0,4	0,4-0,5	0,6-0,7	0,7-0,8
Temir, mg	50-56	50-52	50-51	50-51
Mis, mg	2,0-2,2	2,0-2,1	2,1-2,2	2,1-2,2
Rux, mg	13-14	13-14	12-13	12-13
Marganes, mg	7,0-8,0	6,8-7,0	7,0-7,1	7,0-7,1
Karotin, mg	0,8-1,4	1,5-2,0	2,0-2,6	2,4-2,6
Vitamin D, XB	100-170	170-240	240-300	320-380
Vitamin E, mg	2,0-3,4	3,4-4,8	4,8-6,0	6,4-7,6

*Quyonlarga beriladigan ayrim ozuqalarning maksimal miqdorlari,  
( bir boshga, g)*

Ozuqa turlari	Katta yoshdagi quyonlar	Yosh quyonlar, oy	
		1-3	3-6
Tabbiy o'tloqlar o'tlari	1500	200-500	500-900
Ekiladigan dukkakli o'tlar	1200	150-400	400-700
Ko'k daraxt shoxlari	600	50-200	200-400
Lavlagi bargi	200	0-50	50-100
Xashaki karam	600	100-150	250-400
Karam bargi	300	0-100	100-200
Sabzi	600	100-250	250-400
Xashaki lavlagi	200	100	100-200
Qand lavlagi	600	100-250	250-400
Turneps, bryukva, turp	400	50-100	100-200
Kartoshka, pishirilgan	400	50-150	150-300
Kartoshka, xom	150	0-50	50-250
Silos	300	20-80	80-200
Pichan	300	0-100	100-200
Boshoqli donlar	150	30-60	60-100
Dukkakli donlar	50	10-20	20-30
Yog' olinadigan donlar	20	5-10	10-15
Kepaklar	100	5-20	20-80
Kujara, shtot (chigitnikidan tashqari)	100	5-20	20-80
Go'sht-suyak uni	15	5-10	10
Osh tuzi	2,5	0,5-1	1
Bo'r	2	0,5-1	1

## Nazorat savollari

1. Quyonlaming oziqlanishida asosiy biologik xususiyatlarini bayon eting.
2. Quyonlami oziqlantirishda qanday ozuqalardan va qaysi tartibda foydalanish mumkin?
3. Quyonlami oziqlantirishda qanday oziqlantirish tiplari ishlab ciliqilgan?
4. Katta yoshdagi quyonlaming energiya va to'yimli moddalarga bo'lgan talabi qanday ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqilgan?
5. Yosh quyonlami oziqlantirishda nimaga e'tibor berish zamr?

### Qo'shimcha topshiriqlar:

**1. Quyonlar uchun озиқлантириш меъёри qanday ko'rsatkichlar bo'yicha меъёрлаштирилади?**

- A. tirik massa, yosh va fiziologik holat (буғоз бўлмаган давр, juftlashish davrida, буғозлик даврида, laklация даври)
- B. tirik vazn, yog', yosh va fiziologik holat (bo'sh, juftlashish davrida, sukrol, laklash)
- C. tirik massa va fiziologik holat (juftlashish davrida va буғозлик, laklация даври)
- D. tirik vazn, yosh va mahsuldorlik (kunlik o'rtacha o'sish va уядаги quyonlar soni)

**2. Quyonlar uchun oqsilga bo'lgan ehtiyoj qanday меъёрлаштирилади?**

- A. 100 g ozuqada gramm oqsil
- B. 1 kg ozuqada ~ gramm protein
- C. 1 kg quruq moddada gramm protein
- D. kuniga bir boshda ~ gramm protein

**3. Quyolarni озиқлантиришда qanday озиқлантириш turlari qo'llaniladi?**

- A. kombinatsiyalangan (aralash) va to'liq donador aralash ozuqa bilan oziqlantirish (quruq)
- B. konsentrangan (aralash) va to'liq donador aralash ozuqa bilan oziqlantirish (quruq)
- C. konsentrat (aralash) va donador aralash ozuqa bilan oziqlantirish (quruq)
- D. kombinatsiyalangan (aralash) va to'liq ozuqa bilan oziqlantirish (quruq) va nam (suqli ozuqa)}

**4. Yozda kattalar quyonlarini to'g'ri ovqatlantirishni aniqlang?**

- A. pichan, ildiz ekinlari va konsentratlarning bir qismi o'rniga yashil ozuqa kiritiladi
- B. pichan va ildiz ekinlari o'rniga yashil ozuqa kiritiladi
- C. barcha konsentratlar o'rniga yashil ozuqa kiritiladi
- D. pichan, ildiz ekinlari va konsentratlarning bir qismi o'rniga silos kiritiladi}

**5.Quyonlarda oshqozon-ichak traktining qaysi qismida b vitaminlari mikrobiologik sintezi sodir bo'ladi?**

- A. yo'g'on ichakda
- B. oshqozonda
- C. ichakning ingichka qismida
- D. o'n ikki barmoqli ichakda

**6.Kaprofagiya nima?**

- A. tezagini iste'mol qilish
- B. oshqozon-ichak traktida ozuqa o'tishi qiyinligi
- C. ovqat hazm qilish buzilishi
- D. озуқадан zaharlanishi

### 1-ekspert varag'i

1. Катта ёшдаги қуёнларга ёзги рацион структурасини ёзинг
2. Қанча озиқа меъёри берилади

**1.-topshiriq.** Tirik vazni 5 kg bo'lgan katta yoshli quyon uchun yozgi mavsum uchun oziqlantirish ratsionini tuzing va ratsionstrukturasini aniqlang. Xo'jalikda quyidagi oziqalar mavjud: arpa doni, suli doni, bug'doy kepagi, ko'k beda, osh tuzi.

### 2-ekspert varag'i

- 1.Катта ёшдаги қуёнларга қанча озиқа бирлиги берилади
- 2.Киши мавсумидада озуқа структурасини ёзинг

☞ **2.-topshiriq.** Tirik vazni 5 kg bo'lgan katta yoshli quyonlari uchun qish mavsumiga oziqlantirish ratsionini tuzing. Qish mavsumi uchun quyidagi oziqalar jamg'arilgan: arpa doni, suli doni, kungaboqar kunjarasi, beda pichani, hashaki sabzi, osh tuzi.

### 3-ekspert varag'i

1. Қандай қилиб бир бош қуёнга бир йиллик озуқага бўлган талабини хисоблаб чиқилади?

☞ **3.-topshiriq.** Yuqorida bajarilgan topshiriqlar asosida bir bosh quyon uchun bir yillik ozuqaga bo'lgan ehtiyojini hisoblab chiqing.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hamroqulov R., Kariboyev K. Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish. Toshkent 1999.
2. Петухова Е.А. и др. Практикум по кормлению сельскохозяйственных животных. М.1991.
3. Durst L., Vittman M. Qishloq xo'jaligi hayvonlarni oziqlantirish. Urganch 2010.

#### Internet saytlari

[www.wikipedia;](http://www.wikipedia;)

[www.cnshb.ru;](http://www.cnshb.ru;)

[www.ya-fermer.ru](http://www.ya-fermer.ru)





